# Jizzax viloyati statistika boshqarmasi

## 2019 yil yanvar-mart oyida Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

### Sanoat ishlab chiqarish

Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi – 942,9 mlrd. so'm

Sanoat ishlab chiqarish indeksi – 98,3 %

### Iste'mol tovarlari

Iste'mol tovarlari hajmi – 365,4 mlrd. so'm

O'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'shish sur'ati – 98,2 %

### Kichik biznes

Sanoat mahsulotlarida kichik biznesning ulushi – 50,5 %

Iste'mol tovarlarida kichik biznesning ulushi – 78,6 %

**Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari**




Tog'–kon sanoati va ochik konlarni ishlash

Ishlab chiqaradigan sanoat

elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondisiyalash

Suv bilan ta'minlash, kanalizasiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizasiya qilish

## Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash **(B-seksiya)**.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6,5 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati) **(C-seksiya)**.

2019 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 873,6 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 92,7 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushini to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 40,1 %, oziq-ovqat mahsulotlarini Ishlab chiqarish 15,8 %, elektr uskunalar ishlab chiqarish 10,2 %, boshqa nometal meniral mahsulotlar ishlab chiqarish 8,0 % ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin.

## Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari(qayta ishlash sanoati) hajmida yuqori ulushlar tarkibi



*1-jadval*

## Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati)da yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| 2019 yil yanvar-mart oylarida | Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari | O'sish sur'ati, % da |
|---|---|---|
| | **Paxta chigiti, t.** | |
| 31400,0 |  | 99,7 |
| | **Paxtadan yigirilgan ip, t.** | |
| 3425,0 |  | 169,1 |
| | **Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.** | |
| 15054,0 |  | 106,2 |
| | **Trikotaj yoki qulda to'qilgan ustki kiyimlar, ming dona** | |
| 333,0 |  | 98,9 |
| | **O'simlik yog'I (tozalangan), t.** | |
| 2539,0 |  | 65,9 |
| | **Paxta tolasi, t.** | |
| 19198,0 |  | 91,1 |

| 2019 yil yanvar-mart oylarida | Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari | O’sish sur’ati, % da |
|---|---|---|
| | **Paxta linti, t.** | |
| **1638,0** |  | **91,2** |
| | **Chakana savdo uchun qadoqlanmagan yuzaki aktiv vositalar, yuvish va tozalovchi vositalari, t.** | |
| **290,0** |  | **82,9** |
| | **Porshenli dvigatellarni ishga tushirish uchun qo’rg'oshinli akkumulyatorlar, ming dona** | |
| **195,0** |   | **101,2** |
| | **Mashinada yoki qo’lda tuqilgan trikotaj polotnolar, t.** | |
| **434,0** |  | **80,8** |

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash **(D-seksiya).**



Joriy yilning yanvar-mart oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 44,6 mlrd. so’mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,7 % ni) tashkil etdi. Shu bilan birga fizik hajmi indeksi 101,4 % ni tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish. **(E-seksiya).**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 18,2 mlrd.so’mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,9 % ni) tashkil etdi.

Joriy yilning yanvar-mart oylarida sanoatning **(E-seksiya)** mazkur tarmog’ida eng yuqori ulushni, chiqindilarni yig’ish, ishlov berish, yo’qotish, o’tilizasiya qilish 1,4 % ni, suv yig’ish, qayta ishlash va taqsimlash esa 0,5 % ni tashkil etdi.



Jizzax viloyati bo'yicha 2019 yil yanvar-mart oylarida amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari 942,9 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarish indeksi 98,3 % ni tashkil etdi.

*1-diagramma*

**Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining xajmi,** mlrd. so'm




*2-diagramma*

**Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining tarkibi,** % da



Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha jami sanoatda hududlarning yuqori ulushi Jizzax shahri (44,7 %) va Do'stlik (16,1 %), Paxtakor (9,6 %), Zarbdor (5,2 %), Arnasoy (4,6 %), Zafarobod (4,5 %), Sh.Rashidov (4,0 %) tumanlariga to'g'ri kelgan.

*3-diagramma*

**2019 yilning yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishda hududlarning o'rni,** %da




*4-diagramma*

**2019 yilning yanvar-mart oylarida hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmi,** mlrd. so'm



Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo’llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste’mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 365,4 mlrd. so’mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 98,2 % ni, jami sanoatdagi ulushi esa 38,8 % ni tashkil etdi.

*6-diagramma*




2018 yilning yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlarining ulushi 63,4 % dan 2019 yilning yanvar-mart oylarida 68,1 % ga ko’paygan.

*7-diagramma*

**2018 yil** **2019 yil**






Amaldagi narxlarda aholi jon boshiga jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari 695,7 ming so'mni tashkil etgan bo'lib, o'z navbatida Jizzax shahrida 2411,5 ming so'mni, Do'stlik tumanida 2360,4 ming so'mni, Paxtakor tumanida 1243,4 ming so'mni, Arnasoy tumanida 958,8 ming so'mni tashkil etadi.

*8-diagramma*

**Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari,**

ming so'm



Dastlabki ma’lumotlarga asosan joriy yilning 1 aprel holatiga 36 ta horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tomonidan 243,3 mlrd. so’mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan.

*9-diagramma*

**Horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarihajmi,** mlrd. so’mda




*10-diagramma*

**Faoliyat yuritayotgan horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar soni,** birlik






**Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi**

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida 475,7 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 50,5 % ni tashkil etdi.

*11-diagramma*

**Jami sanoatda kichik biznesning ulushi,**
foiz hisobida




*12-diagramma*

**Hududlar miqqiyosida jami sanoat hajmida kichik biznes ulushi,** %da



## Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 2019 yil 1 aprel holatiga 2528 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo’lib, ulardan 901 tasi Jizzax shahrida, 549 tasi Sharof Rashidov, 216 tasi G’allaorol, 186 tasi Zomin, 109 tasi Forish, 96 tasi Zarbdor, 91 tasi Paxtakor, 86 tasi Baxmal, 81 tasi Do’stlik, 69 tasi Mirzacho’l, 60 tasi Zafarobod, 45 tasi Arnasoy, 39 tasi Yangiobod tumanlarida joylashgan.

**2019 yil 1 aprel holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni**

*13-diagramma*




2019 yil yanvar-mart oylarida viloyatda 80 ta horijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar faoliyat yuritib kelmoqda, jumladan Jizzax shaharda 43 ta, Forish tumanida 9 ta, Sharof Rashidov tumanida 5 ta, G’alaorol, Do’stlik, Zomin tumanlarida 4 tadan, Paxtakor tumanida 3 ta, Zarbdor, Zafarobod, Yangiobod tumanlarida 2 tadan va Baxmal, Mirzacho’l tumanlarida 1 tadan horijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar faoliyat yuritmoqda.

## Jizzax viloyati bo'yicha 2019 yil yanvar-mart oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturini amalga oshirish













2019 yil yanvar-mart oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallarni ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturi doirasida 37 ta loyiha bo'iycha 20,4 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, 263,0 ming.dollarlik mahalliylashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi va 22 ta yangi ish o'rni yaratildi.

**Viloyat statistika boshqarmasining**
**Sanoat statistikasi bo'limi**
Aloqa telefoni: *(0371) 230-83-47*